

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISHI VA HUQUQIY ASOSLARI

Xolmurodov A'zam Shaxriyovich

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti
Bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari
doktori (DSc), dotsent**

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda nodavlat ta'lim tashkilotlarining ahamiyati, ularning rivojlanish omillari va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Nodavlat ta'lim sektoriga bo'lgan talabning ortishi demografik o'sish va zamonaviy ta'limga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq ekani asoslab berilgan. Milliy qonunchilik asosida nodavlat ta'lim muassasalarining huquqiy maqomi, ularni tashkil etish, litsenziyalash va nazorat qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, sohada uchraydigan muammo va to'siqlar tahlil qilinib, takliflar bayon etilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, huquqiy asoslar, litsenziyalash, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim xizmatlari.

Аннотация: В данной статье проанализирована значимость частных образовательных учреждений в Узбекистане, факторы их развития и правовые основы. Обосновано, что рост спроса на частное образование связан с демографическим ростом и потребностью в современном образовании. На основе национального законодательства освещены правовой статус частных образовательных учреждений, порядок их создания, лицензирования и механизмы контроля. Кроме того, проанализированы существующие проблемы и препятствия в этой сфере, а также предложены соответствующие рекомендации.

Ключевые слова и понятия: негосударственные дошкольные образовательные учреждения, правовые основы, лицензирование, государственно-частное партнерство, образовательные услуги.

Annotation: This article analyzes the significance of private educational institutions in Uzbekistan, their development factors, and legal foundations. It is substantiated that the growing demand for private education is associated with demographic growth and the need for modern education. Based on national legislation, the legal status of private educational institutions, the procedures for their establishment, licensing, and control mechanisms are highlighted. In addition, existing problems and obstacles in this field are analyzed, and appropriate recommendations are proposed.

Key words and concepts: private preschool educational institutions, legal foundations, licensing, public-private partnership, educational services.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini yaxshilash va uning qamrovini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Aholining ortib borayotgan ehtiyojlari, demografik o'sish, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga bo'lgan talab nodavlat ta'lim muassasalariga ehtiyojni keskin oshirdi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining barqaror va samarali rivojlanishi faqat davlat muassasalari faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. Hozirgi zamon talablariga mos ravishda

ta'lim sohasiga xususiy sektorning kirib kelishi, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi (so'nggi o'n yillikda aholi soni 38 mln. dan oshdi), natijasida maktabgacha yoshidagi bolalarning ulushi ko'paydi, davlat bog'chalarida navbatlar ortib ketdi, ayrim hududlarda pedagog kadrlarning yetishmasligi kuzatildi. Bu esa, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan talabni oshirdi.

Islohotlar boshlangan dastlabki yillarda maktabgacha ta'lim sohasida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'chalarga qamrov darajasi 27–30 foizni tashkil etgan bo'lsa, nodavlat bog'chalarning kirib kelishi natijasida bu ko'rsatkich qisqa muddatda sezilarli darajada oshdi. Hozirda, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 38 058 tani tashkil etgan. Shundan, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 28 729 ta oilaviy, 624 ta xususiy, 2 080 dan ortiq davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etadi.¹⁴

O'zbekistonda nodavlat maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishi va barqaror rivojlanishi avvalo uning mustahkam huquqiy asosga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining yangi tahririda nodavlat ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablar va ularning javobgarlik asoslari belgilangan:

- nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshirishi va litsenziya talablariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatishi;
- normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;
- xizmatlarini shartnoma (o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari va boshqalar) asosida amalga oshirishi kabilar.¹⁵

Mazkur qonunning muhim jihati shundan iboratki, ta'limning davlat va nodavlat shakllarini huquqiy jihatdan teng deb e'tirof etadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tizimining muhim huquqiy asoslaridan yana biri bu - "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun hisoblanadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatning 10 dan ortiq moddalarida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi, ularning faoliyat yo'nalishlari asoslari xususida batafsil qoidalar belgilangan:

- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyati uchun litsenziya asosida amalga oshirishi;
- jismoniy shaxslar tomonidan maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlari ko'rsatish;
- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash (berish, qayta rasmiylashtirish, muddatini uzaytirish, bekor qilish va h.k.)¹⁶.

Nodavlat ta'lim tizimidagi islohotlarni jadal amalga oshirishda Prezident farmon va qarorlari muhim ahamiyat kasb etib, muassasalarni qo'llab-quvvatlash, soliq va bojxona imtiyozlari hamda litsenziyalash jarayonlarini yengillashtirishni nazarda tutadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3276-son qarori bilan:

- nodavlat ta'lim muassasalariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish;

¹⁴ <https://zamin.uz/uzbekiston/167803-ozbekistonda-bogchalar>

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 31-modda.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 19, 20, 21-moddalar.

- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlariga bepul ta'lim xizmatlari ko'rsatish kabi masalalar yoritilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-316-sonli qarori qabul qilinib, unda respublikamizda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi va ularning tarmog'i kengaytirildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qarori bilan "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona nizom" tasdiqlandi. Ushbu nizomda nodavlat ta'lim muassasalarini elektron tizim orqali litsenziyalashni markazlashtirish va soddalashtirish belgilab berildi¹⁷. Keltirilgan normativ-huquqiy bazalar nodavlat ta'lim muassasalarining huquqiy maqomini aniq belgilab, ularning faoliyat yuritishi uchun asosiy zamin yaratadi hamda ularga o'z faoliyatini mustaqil tarzda olib borish imkonini beradi va javobgarligini ta'minlaydi. Bu esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, raqobat va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun samarali huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Garchi respublikamizda bu kabi normativ-huquqiy baza yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator mavjud muammo va to'siqlar uchrab turibdi:

1. **Malakali pedagog kadrlar yetishmasligi.** Davlat muassasalarida tajriba to'plagan kadrlar xususiy sektorga o'tsa ham, barcha xususiy muassasalar yuqori maosh va rag'batlantirish imkoniyatiga ega emas.

2. **Aholining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi.** Xususiy ta'lim xizmatlari ayrim aholi qatlamlari uchun maqbul emas.

Xususiy bog'chalar pedagoglari uchun malaka oshirish kurslari, seminarlar va ko'chma treninglar tashkil etish, ularning professional salohiyatini oshirish;

Kam ta'minlangan oilalar uchun xususiy muassasalarda bolalarning bepul o'qishi uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim sohasidagi dolzarb muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sog'lom raqobat ta'lim sifatini oshirish, pedagogik yondashuvlarni diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish imkonini beradi. Nodavlat bog'chalarning ko'payishi ota-onalarga tanlov imkonini yaratadi va umumiy ta'lim tizimining rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3276-son qarori. 2017-yil 15-sentyabryu

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-son qarori. 2022-yil 21-fevral.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-316-sonli qarori. 2023-yil 27-sentyabr.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-son qarori. 2022-yil 21-fevral.

6. <https://www.uzedu.uz> (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining veb sayti).

<https://zamin.uz/uzbekiston/167803-ozbekistonda-bogchalar>

8. <https://stat.uz> (Milliy statistika qo'mitasining veb sayti).